



**FUQAROLIK PROTSESSIDA CHET EL FUQAROLARI VA
TASHKILOTLARINING, FUQAROLIGI BO'LMAGAN SHAXSLARNING
PROTSESSUAL HUQUQLARINI TA'MINLASH: MILLIY VA XORIJIY
TAJRIBA**

Axmedova Moxigul Faxridin qizi

Huquq magistri(TDYU)

E-pochta: Mokhigul52@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada fuqarolik protsessida chet el fuqarolari va tashkilotlari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning protsessual huquqlarini ta'minlashning huquqiy asoslari milliy va xorijiy tajriba misolida qiyosiy-huquqiy tahlil usulida o'rganiladi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining III bo'limida mustahkamlangan milliy rejim prinsipi, sudlovga tegishlilik qoidalari, til huquqi hamda xorijiy sud va arbitraj qarorlarini tan olish va ijroga qaratish instituti tahlil qilinadi. Shuningdek, xalqaro-huquqiy hamkorlik shakllarining ahamiyati ko'rib chiqiladi. Rossiya, Qozog'iston, AQSH va Yevropa Ittifoqi tajribasi bilan solishtirish asosida milliy qonunchilikni takomillashtirishga oid takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: fuqarolik protsessi, chet el fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, protsessual huquq layoqati, milliy rejim, sudlovga tegishlilik, xorijiy sud qarorlarini tan olish.

Globalashuv jarayonlarining chuqurlashishi, xalqaro mehnat migratsiyasining o'sishi, tashqi savdo va investitsiya aloqalarining kengayishi natijasida fuqarolik-huquqiy munosabatlarda chet el elementi ishtirok etadigan holatlar tobora ko'payib bormoqda. Bunday sharoitda chet el fuqarolari, fuqaroligi



bo‘lmagan shaxslar va xorijiy tashkilotlarning O‘zbekiston Respublikasi sudlarida o‘z huquq va manfaatlarini himoya qilish imkoniyatini samarali ta’minlash muhim huquqiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Fuqarolik protsessida chet el elementining ishtirok etishi nafaqat milliy qonunchilikning xalqaro standartlarga muvofiqligini, balki davlatning xalqaro huquqiy hamkorlikdagi ishonchliligini ham belgilaydigan omillardan biridir. Adabiyotlarda ta’kidlanishicha, xorijiy fuqarolarning sud himoyasi huquqidan to‘liq va samarali foydalanishi zamonaviy huquqiy davlatning asosiy mezonlaridan biri sifatida baholanadi¹. Shu bois mavzuni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Fuqarolik protsessida chet el elementi ishtirokining tushunchasi va huquqiy tabiati. Fuqarolik protsessual huquq nazariyasida “chet el elementi” tushunchasi keng ma’noda talqin etiladi va u uch asosiy shaklda namoyon bo‘ladi: birinchidan, protsess ishtirokchisi sifatida chet el fuqarosi, fuqaroligi bo‘lmagan shaxs yoki xorijiy tashkilot ishtirok etishi; ikkinchidan, nizoning predmeti chet elda joylashgan mol-mulk yoki huquq bo‘lishi; uchinchidan, huquqiy faktning chet elda yuzaga kelishi. Ushbu uch shaklning har biri fuqarolik sud ishlarini yuritishning odatiy tartibiga qo‘shimcha protsessual xususiyatlar - sudlovga tegishlilikni aniqlash, qo‘llaniladigan huquqni tanlash, hujjatlarni chet elga yetkazish va xorijiy sud hujjatlarini tan olish kabi masalalarni keltirib chiqaradi.

¹Sarker M. Comparative Civil Procedure. — Cambridge University Press, 2020. — P. 1–15.



Fuqarolik protsessual huquq doktrinasida chet el fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar va xorijiy tashkilotlarning protsessual maqomini belgilashda ikkita asosiy yondashuv mavjud: milliy rejim (national treatment) va o'zaro tanlash (retsiprositet) tamoyillari. Milliy rejim tamoyiliga ko'ra, chet el fuqarosi sud jarayonida fuqarolik bilan bog'liq har qanday cheklovlarsiz, mahalliy fuqaro bilan bir xil protsessual huquq va majburiyatlardan foydalanadi. Aksariyat kontinental huquq tizimiga mansub davlatlar aynan ushbu yondashuvni tanlagan², ikkinchi tamoyili esa chet el fuqarosining protsessual maqomini uning davlati tomonidan mahalliy fuqarolarga qanday munosabat ko'rsatilishiga bog'liq holda belgilaydi³.

O'zbekiston qonunchiligida chet el fuqarolari, tashkilotlari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning protsessual huquqlari. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi (bundan buyon matnda FPK) alohida III bo'limni chet el elementi ishtirok etgan fuqarolik ishlarini yuritishga bag'ishlagan. Ushbu bo'lim ikki bobdan umumiy qoidalarni belgilovchi 41-bob va xorijiy sud hamda arbitraj qarorlarini tan olish va ijro etishga oid 42-bobdan iborat. FPKning 359-moddasida chet el fuqarolari va tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va tashkilotlari bilan bir xil protsessual huquqlardan foydalanishi va bir xil protsessual majburiyatlarni bajarishi belgilangan bo'lib, bu milliy rejim prinsipining qonunchilikdagi bevosita ifodasidir. Xuddi shunday qoida FPKning 360-moddasida fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga nisbatan ham qo'llaniladi. Bunday

²Zweigert K., Kötz H. Introduction to Comparative Law. — Oxford: Clarendon Press, 1998. — P. 256–310.

³Merryman J.H., Pérez-Perdomo R. The Civil Law Tradition: An Introduction to the Legal Systems of Europe and Latin America. — Stanford University Press, 2007. — P. 30–55.

yondashuv fuqarolik protsessual huquqi nazariyasida ustuvor deb tan olingan milliy rejim kontsepsiyasiga to'liq mos keladi⁴.

Qonun va sud oldida tenglik prinsipi FPKning 8-moddasida mustahkamlangan bo'lib, unga ko'ra fuqarolik ishlari bo'yicha odil sudlov fuqarolarning jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi va boshqa holatlaridan qat'i nazar, qonun va sud oldida tenglik asosida amalga oshiriladi. Bu tamoyil chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga nisbatan ham to'liq tatbiq etiladi hamda sud jarayonida ularning fuqaroligiga asoslangan har qanday kamsitishga yo'l qo'yilmasligini kafolatlaydi.

Sud jarayonida qatnashuvchi tilni bilmagan chet el fuqarosining huquqlarini ta'minlash borasida FPKning 11-moddasi muhim ahamiyat kasb etadi. Unga ko'ra, sud ishlari yuritiladigan tilni bilmaydigan shaxslarga o'z ona tilida yoki o'zi biladigan boshqa tilda so'zlash, tushuntirish berish, arizalar va iltimosnomalar taqdim etish, shuningdek tarjimon xizmatidan bepul foydalanish huquqi kafolatlanadi. Amaliyotda ushbu norma ayniqsa xorijiy fuqarolar ishtirok etadigan mehnat, oilaviy va tijorat nizolarida faol qo'llaniladi, biroq malakali sud tarjimonlarining yetishmasligi ba'zi hollarda protsessual muddatlarning cho'zilishiga sabab bo'lmoqda.

Sudlovga tegishlilik masalasi FPKning 361-moddasida tartibga solingan bo'lib, unga ko'ra chet el fuqarolari, tashkilotlari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etayotgan nizolar, shuningdek hech bo'lmaganda bittasi chet elda yashab turgan

⁴Mamasidiqov M., Esanova Z., Habibullayev D. Fuqarolik protsessual huquqi: Darslik. — Toshkent: TDYU nashriyoti, 2021. — B. 214–226.

tafllar o'rtasidagi nizolar bo'yicha fuqarolik ishlari, agar javobgar O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan yoki bu yerda mol-mulkka ega bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi sudlarining sudloviga tegishli bo'ladi. Chet davlatlarga nisbatan da'vo qo'zg'atish tartibi esa FPKning 362-moddasida davlat immuniteti tamoyilini hisobga olgan holda alohida tartibga solingan bo'lib, bu yondashuv xalqaro huquqning suveren tenglik prinsipiga mos keladi.

Xorijiy sud va arbitraj qarorlarini tan olish va ijro etish instituti

Chet el elementi ishtirokidagi fuqarolik protsessining eng murakkab bosqichlaridan biri xorijiy sud yoki hakamlik sudi (arbitraj) tomonidan chiqarilgan hal qiluv qarorini O'zbekiston hududida tan olish va ijroga qaratishdir. FPKning 42-bobi ushbu masalani batafsil tartibga soladi: unda tan olish va ijroga qaratish to'g'risidagi arizaning shakli va mazmuni, unga ilova qilinadigan hujjatlar, arizani ko'rib chiqish tartibi hamda tan olishni rad etish asoslari belgilangan. Umumiy qoidaga ko'ra, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida yoki qonunda o'zaro tan olish tartibi nazarda tutilmagan bo'lsa, xorijiy sud qarorini tan olish va ijro etish murakkablashadi, bu esa amaliyotda ko'pincha muammolar keltirib chiqaradi⁵. Qiyosiy-huquqiy adabiyotlarda ko'rsatilishicha, xorijiy sud qarorlarini tan olish tartib-taomillari davlatlar o'rtasidagi o'zaro ishonch darajasi va xalqaro-huquqiy hamkorlikning rivojlanganlik darajasiga bevosita bog'liq bo'ladi⁶.

⁵ Yusupov O. Fuqarolik protsessual huquqi nazariyasi. – Toshkent, 2021. – B. 67–69.

⁶ Sarker M. Comparative Civil Procedure. — Cambridge University Press, 2020. — P. 88–104.



Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi asosan Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) davlatlari bilan tuzilgan ko‘p tomonlama va ikki tomonlama shartnomalar doirasida xorijiy sud qarorlarini tan olish va ijroga qaratish imkoniyatiga ega. Bu borada 1993-yil 22-yanvarda qabul qilingan “Fuqarolik, oila va jinoiy ishlar bo‘yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to‘g‘risida”gi Minsk konvensiyasi asosiy huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Konvensiya fuqarolik, oila va jinoiy ishlar bo‘yicha huquqiy yordam ko‘rsatish, hujjatlarni tan olish va ijro etish qoidalarini uch qismda tartibga soladi. So‘nggi yillardagi ko‘rsatkichlarga ko‘ra, MDH davlatlari o‘rtasida ushbu konvensiya asosida har yili o‘n minglab huquqiy yordam yuzasidan arizalar ko‘rib chiqilar ekan, jumladan, O‘zbekiston sudlari tomonidan chiqarilgan yuzlab qarorlar boshqa MDH davlatlarida tan olingan va ijro etilgan. Bu ko‘rsatkichlar mintaqaviy huquqiy hamkorlikning amaliy samaradorligini yaqqol tasdiqlaydi.

MDH doirasidan tashqarida O‘zbekiston bugungi kunda Gaaga xususiy xalqaro huquq konferensiyasi (HCCH) doirasida qabul qilingan bir qator konvensiyalarga ham qo‘shilgan. Xususan, “Fuqarolik va tijorat ishlari bo‘yicha sud va suddan tashqari hujjatlarni xorijda yetkazib berish to‘g‘risida”gi 1965-yilgi Gaaga konvensiyasiga O‘zbekiston 2020-yilda qo‘shilgan va 2021-yildan boshlab uni qo‘llab kelmoqda. Ushbu konvensiya chet el fuqarolari ishtirok etayotgan nizolar bo‘yicha sud hujjatlarini xorijga yuborish tartibini soddalashtirib, protsessual muddatlarning cho‘zilishini kamaytirishga xizmat qiladi.

Chet el fuqarolarining protsessual huquqlarini tartibga solishda MDH davlatlari, xususan Rossiya Federatsiyasi va Qozog‘iston Respublikasi tajribasi O‘zbekiston



uchun eng yaqin qiyosiy asosdir, chunki ularning fuqarolik protsessual kodekslari umumiy asoslanadi. Rossiya va Qozog‘iston qonunchiligida ham chet el fuqarolari va tashkilotlariga milliy fuqarolar bilan teng protsessual huquqlar kafolatlanadi, xorijiy sud va arbitraj qarorlarini tan olish tartibi esa deyarli bir xil sxema ya’ni ariza berish, uni sud tomonidan ko‘rib chiqish va tan olishni rad etish asoslari bo‘yicha tuzilgan⁷. Ushbu o‘xshashlik mintaqada yagona huquqiy makonni shakllantirish imkoniyatini kengaytiradi, biroq amalda har bir davlatning ichki protsessual talablari (davlat boji miqdori, hujjatlarni tasdiqlash tartibi) farqlanishi natijasida amaliy qiyinchiliklar hamon saqlanib qolmoqda.

Boshqa huquq tizimiga mansub AQSHda esa chet el fuqarolari va tashkilotlarining protsessual huquqlari, birinchi navbatda, konstitutsiyaviy “tegishli protsessual kafolat” (due process) doktrinasi orqali ta’minlanadi. Amerika fuqarolik protsessual huquqi bo‘yicha ilmiy adabiyotlarda ko‘rsatilishicha, fuqaroligi bo‘lmagan shaxs yoki norezident javobgarga nisbatan sud yurisdiksiyasini o‘rnatish uchun shakllangan “minimal aloqalar” (minimum contacts) doktrinasi xorijiy shaxslarning protsessual huquqlarini adolatli yurisdiksiya doirasida himoya qilishga xizmat qiladi⁸. Bunday yondashuv O‘zbekiston FPKsining 361-moddasidagi sudlovga tegishlilik mezonlariga (javobgarining O‘zbekistonda joylashuvi yoki mol-mulki mavjudligi) mazmunan yaqin bo‘lsa-da, huquqiy

⁸ Hazard G.C., Taruffo M. American Civil Procedure: An Introduction. — New Haven: Yale University Press, 1993. — P. 15–29.



texnika jihatidan farq qiladi: AQSHda bu masala sud amaliyoti (pretsedent) orqali, O'zbekistonda esa qonun normasi orqali belgilanadi.

Yevropa Ittifoqi darajasida chet el elementi ishtirokidagi fuqarolik va tijorat ishlari bo'yicha yurisdiksiya, shuningdek sud qarorlarini tan olish va ijro etish masalalari yagona mintaqaviy reglamentlar bilan tartibga keltirilgan. Qiyosiy huquqshunoslikka oid adabiyotlarda ta'kidlanishicha, bunday yagona tartibga solish a'zo davlatlar o'rtasida sud qarorlarini deyarli avtomatik tan olish imkonini beradi va alohida ekzekvatura (ijroga qaratish) tartibiga bo'lgan ehtiyojni sezilarli darajada kamaytiradi⁹, bu esa mintaqaviy integratsiya sharoitida protsessual soddalashtirishning yuqori darajasini namoyish etadi. O'zbekiston uchun bunday model MDH doirasida uzoq muddatli istiqbolda mumkin bo'lsa-da, hozirgi bosqichda ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartnomalar tizimi orqali bosqichma-bosqich takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda o'tkazilayotgan tahlillar shuni ko'rsatadiki O'zbekiston hozirgacha bolalarni himoya qilish va oilaviy nizolarga oid bir qator muhim Gaaga konvensiyalariga (masalan, ota-onaning huquqiy javobgarligi to'g'risidagi 1996-yilgi konvensiyaga) a'zo emas, bu esa xorijiy sud qarorlarini tan olish doirasini cheklaydi.

MDH davlatlari bilan bo'lgan ikki tomonlama shartnomalar tarmog'ini kengaytirish, shuningdek ko'p tomonlama xalqaro shartnomalarga qo'shilish qonunchilikni xalqaro-huquqiy hamkorlikning ilg'or shakllariga yanada

⁹Zweigert K., Kötz H. Introduction to Comparative Law. — Oxford: Clarendon Press, 1998. — P. 67–89.



yaqinlashtirishga, fuqarolik protsesslarini xalqaro standartlarga to'la moslashtirishga xizmat qiladi¹⁰.

Xulosa qilib aytganda, fuqarolik protsessida chet el fuqarolari va tashkilotlari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning protsessual huquqlarini ta'minlash O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining III bo'limida yetarli darajada tizimli tartibga solingan bo'lib, uning negizida milliy rejim, qonun va sud oldida tenglik, sud himoyasi huquqi kabi tamoyillar yotadi. Shu bilan birga, xalqaro-huquqiy hamkorlik tarmog'ining kengayishi, xususan Gaaga konferensiyasi konvensiyalariga qo'shilish darajasining oshirilishi, sud tarjimonlari institutini rivojlantirish va hujjat almashinuvini raqamlashtirish orqali milliy qonunchilikni yanada takomillashtirish zaruriyati saqlanib qolmoqda. Bunday chora-tadbirlar nafaqat xorijiy fuqarolarning huquqlarini samarali himoya qilishga, balki O'zbekiston Respublikasining xalqaro huquqiy makonga integratsiyalashuvini yanada chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ILMIY VA NAZARIY ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mamasidiqov M., Esanova Z., Habibullayev D. Fuqarolik protsessual huquqi: Darslik. — Toshkent: TDYU nashriyoti, 2021.
2. Zweigert K., Kötz H. Introduction to Comparative Law. — Oxford: Clarendon Press, 1998.

¹⁰ Merryman J.H., Pérez-Perdomo R. The Civil Law Tradition: An Introduction to the Legal Systems of Europe and Latin America. — Stanford University Press, 2007. — P. 141–150.



3. Sarker M. Comparative Civil Procedure. — Cambridge University Press, 2020.
4. Xamroyev M. Fuqarolik protsessual huquqi. — Toshkent: TDYU nashriyoti, 2020. — B. 42–46.
5. Esanova Z. Fuqarolik protsessual huquqi. — Toshkent: TDYU, 2022. — 328 b.
6. Yusupov O. Fuqarolik protsessual huquqi nazariyasi. — Toshkent, 2021. — B. 67–69.
7. Mamatqulov A. Xalqaro xususiy huquq. — Toshkent: Adolat, 2022.
8. Rustambekov I.S. (tahrir ostida). Xalqaro xususiy huquq: Darslik. — Toshkent: TDYU, 2019. — 226 b.
9. Merryman J.H., Pérez-Perdomo R. The Civil Law Tradition: An Introduction to the Legal Systems of Europe and Latin America. — Stanford University Press, 2007.
10. Hazard G.C., Taruffo M. American Civil Procedure: An Introduction. — New Haven: Yale University Press, 1993.

INTERNET MANBALAR

1. <https://hudoc.echr.coe.int>
2. www.hcch.net
3. www.lex.uz